

1. Stakanga suv soling va unga biror qalam yoki barmog'ingizni solib kuzating. Tajribani uch marta takrorlang. Nimani ko'rdingiz? Daftaringizga yozing, tahlil qiling, xulosa chiqaring.

2. Suv solingan idishga rang soling va nimani ko'rsangiz daftaringizga yozing.

3. Uyga borib tovuq patin olib uni ko'zingizga tutib quyoshga qarang. Nimani ko'rdingiz? Daftaringizga yozing.

O'quvchilarning mustaqil fikirlashlari uchun topshiriq: Bir kun oldin o'qib kelishga berib yuborilgan yoki o'tilgan mavzuga doir biror tovushsiz tajribani ko'rsatib, bu nima edi. Buni tushuntirib bering. Bu kashfiyotni birinchi bo'lib kim kashf etgan degan savollari bilan murojaat etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Biz kursga kelgan o'qituvchilarga ana shunday usullar asosida ta'lim berdik. Ular bu yerda olgan bilimlari asosida o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.B.Jurayev, A.M.Umarov, X.R.Qo'yboqov Fizika. Akademik litseylar uchun 2-qism, -T.: "Muharrir nashriyoti"-2020, 332 bet.

2. Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида қўллаш.Т.:”Талқин”.2012.,144б.

3. Авлиякулов Х., Мусаева Н. Педагогик технология (дарслик). -Т., 2012.

TALABALARNING USLUBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Pardayev Sherzod Mamasharipovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Zamon taraqqiy etgan sari jamiyatda axborotga bo'lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi axborotlar hajmining ham ortib borishiga xizmat qilib kelmoqda. Bu kabi axborotlar ichida ma'lum ma'noda himoyani, maxfiylikni va sir saqlanishini talab etadiganlari ham bo'ladi, negaki, bu toifadagi ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, o'g'irlanishi yoki yo'q qilinishi kabi holatlar tashkilot uchun katta talofotlarni, moliyaviy yoki moddiy zararlarni olib kelishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa qanday soha bo'lmasin albatta, axborot xavfsizligini, uning himoyasi va muhofazasini amalga oshirishi lozim.

Kalit so'zlar: Informatika, texnologiya, tarmoq, Virtual reallik, kengaytirilgan reallik, aralash reallik, kompyuter, klaster, Interfaol, diagramma, displey.

Yurtimizda Istiqlool quyoshi nur socha boshlagan dastlabki kunlardanoq mamlakatimiz ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilib, uni tubdan qayta isloh qilishga oid muhim ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturda belgilangan vazifalarni

bajarishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda fan va texnika, texnologiyaning rivojlangan davrida, oliygohlardagi ta’lim sohalarini modernizatsiyalash va yuqori malakali mutaxassislarni sifatli tayyorlash masalalari yechishda axborot texnologiya-laridan foydalanish eng katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunlarda ilm va fanlarning tezkor rivojlanishida axborotlarni juda tez yig‘ilishi va yangilanishlari odamlarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. Ushbu ishning asosi bo‘lib, talabalarda tadqiqot ko‘nikmalarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida shakllantirish hisoblanadi[1,2]. Zamonaviy axborot texnologiyalari talabalarning quyidagi sifat ko‘rsatkichlarini rivojlantirishlarda juda katta xizmat qiladi:

- ilmiy-tizimli;
- konsturli-obrazli;
- algoritimli tafakkurlashlar;
- tafakkurlash jarayonlarini ajrata olish;
- sezish va anglashlarini rivojlantirish;
- axborot-kommunikasiyalari tadqiqot imkoniyatlarini shakllantirish.

Bunday sifatli ko‘rsatkichlarni shakllantirishlar oliygohlarning barcha o‘quv va ilmiy jarayonlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun oliygohlardagi o‘quv metodikasi quyidagi tashkiliy ishlarga qaratiladi, ya’ni talabalarni mustaqil bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘qituvchining tavsiyasiga asosan original fikrlashlarni shakllantirishni amalga oshirish. Yangi malaka modeli bo‘lajak bitiruvchilarga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- mustaqil bilimlarni o‘zlashtirish va malakasini oshirish;
- olingan bilimlarini innavosion texnologiyalarga qaratish va mustaqil aniq masalalarni yechish;
- ijtimoiy va professionallik jarayonlardagi faolligi va boshqalar.

Keltirilgan talablar talabalarning tadqiqot jarayonlardagi o‘rnini aniqlashga imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunlardagi yangicha yondashuvlar faoliyatlarini faollashtirishlarda juda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot madaniyati o‘z navbatida o‘quv va tadqiqot jarayonlarida muhim vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Talabalarning ta’lim jarayonidagi mustaqil fikrlashlari ularning shaxsiy rivojlanishlarida namayon bo‘ladi. Tadqiqot ko‘nikmalari o‘z navbatida umum ta’lim sohasiga ham tegishli bo‘ladi, chunki ular barcha fanlarni o‘rganishlarda keng fikrlashlarga ega bo‘ladilar. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatlari o‘z navbatida talabalarning individual ishlarining shakli bo‘lib shakllanadi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi eng asosiy tashkiliy qismlari quyidagilardan iborat:

- aqliy fikrlashlarini faollashtirish va bilimlarni mustaqil olish, professional ko‘nikmalarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni professional komponentlarini shakllantirishlarni ta’minlash;
- shaxsiy tafakkurlarini va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb qilish(yondashish)lar.

Tadqiqot ishlarni bajarish jarayonida talabalar fikrlashlarni, topshiriqlarni tahlil qilishni, shartlarni inobatga olishni, masalalarni qo‘yishni, paydo bo‘ladigan muammolarni yechishlarni bilishlari kerak. Bundan esa jarayon asta-sekin ijodiy ishlarga aylanadi.

Talabalar tadqiqot ishlarini bajarish jarayonlarida quyidagi bosqichlardan o'tishlari zarur:

- tadqiqot ishlarini aniqlashlar;
- muammoli masalalarga aniqliklarni kiritish;
- o'zini-o'zi tanlangan yo'nalish sohalari bo'yicha tadqiqot ishlariga tayyorgarligini baholash;
- masalalarni yechish uchun yo'l va vositalarni tanlab olish;
- masalalarni yechimi bo'yicha ularni rejalashtirish;
- tadqiqot ishlarini bajarilishi dasturini amalga oshirish.

Boshqaruv sohasidagi tadqiqot ishlarini bajarish jarayonini amalga oshirishdagi harakatlarga quyidagilar kiradi: tadqiqot ishlarini nazorati, ishlarning oraliq va oxirgi natijalarining nazorati, ishlarni bajarishning dasturini o'zozini tekshirishdagi tuzatishlar, xatolarni bartaraf etish va ularning kelib chiqish sabablaridir.

Xulosa qilib shularni takidlash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida talabalarda intellektuallik imkoni-yatlarni, ularning mustaqil bilim olishlarini va axborotlarni zamonaviy usullarda olishlarni rivojlantiradi hamda ularning amaliy tajribalarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Инкина, О.Н. Самообразовательная деятельность студентов вуза как условие повышения качества их подготовки / О.Н. Инкина, Л.И. Холина. – Новосибирск : НГАУ, 2006. – 160;

2. Абдулова, Л.Ш. Особенности формирования исследовательской компетентности студентов / Л.Ш. Абдулова // Известия Южного федерального университета. Педагогические науки.- 2009.-№ 1.-С.157.162

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ В РЕЖИМЕ On line С ПОМОЩЬЮ ЭРГОНОМИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

к.т.н., доц. Халдаров Хикматулла Ахматович

Ташкентский государственный педагогический университет

Эргашева Гулчехра Рустамовна

«Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» -национальный исследовательский университет

xikmatilla_dosent@mail.ru

Аннотация: Исследовательская работа посвящена определению качества процесса обучения в приобретении знаний в режиме On line с помощью эргономического моделирования.

Ключевые слова и направления: качество, режим On line, процесс обучения, приобретение знаний, эргономика, эргономическая модель.